In this study, a Cobb–Douglas hybrid model based on a nonlinear regression approach was applied to a mass appraisal system using 34 criteria. Additionally, a linear regression model was developed using the same dataset, and their performance indicators were compared. The results show that the linear regression model achieved approximately 82% accuracy, while the Cobb–Douglas hybrid model reached 85% accuracy. MAE, MAPE, and RMSE indicators were calculated to compare model outputs with market values. Furthermore, it was established that these models enable fast and cost-efficient real estate valuation in the long term.

Keywords: real estate, mass appraisal, linear regression, Cobb–Douglas hybrid model, MAE, MAPE, RMSE.

Аннотация. Современная стоимость недвижимости применяется в широком спектре сфер — от изъятия для государственных нужд (экспроприации) до налогообложения, от территориального зонирования до страхования, а также в стоимостно-ориентированной торговле и процессах городской трансформации. В связи с этим оценка недвижимости приобретает значительное экономическое значение как в нашей стране, так и во многих странах мира.
В условиях динамично изменяющихся требований традиционные индивидуальные методы оценки — доходный, сравнительный и затратный подходы — в ряде случаев оказываются недостаточно эффективными. В этой связи возрастает актуальность внедрения систем массовой оценки недвижимости, обеспечивающих более универсальные и масштабируемые решения.
Системы массовой оценки позволяют одновременно определять стоимость большого количества объектов недвижимости и обеспечивать их справедливое налогообложение. Кроме того, формируемые на их основе карты стоимости недвижимости предоставляют ценные функциональные данные для разработки и реализации политики урбанизации.
В данном исследовании на основе 34 критериев для системы массовой оценки был применён гибридный вариант модели Кобба—Дугласа с использованием нелинейного регрессионного подхода. Также на основе того же набора данных была построена линейная регрессионная модель, после чего проведено сравнительное сопоставление показателей эффективности. Результаты показали, что точность линейной модели составила около 82 %, тогда как гибридная модель Кобба—Дугласа продемонстрировала точность на уровне 85 %. Для сопоставления модельных и рыночных значений были рассчитаны показатели MAE, MAPE и RMSE. Установлено, что применение данных моделей позволяет оперативно и с минимальными затратами оценивать стоимость недвижимости в долгосрочной перспективе.

Ключевые слова: недвижимость, массовая оценка, линейная регрессия, гибридная модель Кобба—Дугласа, MAE, MAPE, RMSE.

## KIRISH

Ko‘chmas mulkni baholash — bu baholash sanasidagi sharoitlardan kelib chiqib, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar va manfaatlarning, ko‘chmas mulkning o‘zi yoki ushbu mulk asosida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan loyihaning qiymatini obyektiv aniqlash jarayonidir. Bugungi kunda ko‘chmas mulk qiymatiga bo‘lgan ehtiyoj keng qo‘llanilish doirasiga ega bo‘lib, u ekspropriatsiya, soliqqa tortish, hududlarni zonalashtirish, sug‘urtalash, qiymatga asoslangan savdo bitimlari hamda shaharlarni renovatsiya va transformatsiya qilish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘chmas mulkni baholashning bunday keng qo‘llanilish sohasi ushbu yo‘nalishning nafaqat mamlakatimizda, balki dunyoning ko‘plab davlatlarida ham muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy muhitda ehtiyojlarning tezkor va dinamik ravishda o‘zgarib borishi an’anaviy baholash usullarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, daromad, taqqoslash va xarajat yondashuvlariga asoslangan individual baholash usullari ayrim holatlarda keng ko‘lamli va tezkor baholash talablarini to‘liq qamrab olish imkoniyatiga ega emas.

Shu bois, yanada tizimli va keng qamrovli yechimlarni taklif etuvchi ko‘chmas mulkni ommaviy baholash konsepsiyasi dolzarb yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ko‘chmas mulkni ommaviy baholash hamda ushbu qiymatlar asosida soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ommaviy baholash yondashuvi baholash jarayonini samarali tashkil etish, uzoq muddatda esa resurs tejamkor va tezkor natijalarga erishish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ko‘chmas mulkni ommaviy baholash tizimlari milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash, fiskal siyosat samaradorligini oshirish hamda mulk egalarining iqtisodiy manfaatlarini muvozanatli himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda ko‘chmas mulkni ommaviy baholash tizimlarida qo‘llaniladigan turli zamonaviy usullar keng yoritilgan [13, 15, 21, 27, 32, 33]. Ushbu usullar qatoriga ilg‘or baholash yondashuvlari, jumladan noaniq mantiq (fuzzy logic), sun’iy intellekt texnologiyalari hamda sun’iy neyron tarmoqlari (SNT/ANN) kiradi. Shuningdek, ko‘p mezonli qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar, xususan Analitik Ierarxiya Jarayoni (AHP) va boshqa usullar bilan uyg‘unlashtirilgan gibrid yondashuvlar ham ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanilmoqda [12, 22, 26, 28, 29, 30].

O'tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, baholash usullarini o'zaro taqqoslash jarayonida regressiya, xususan chiziqli regressiya usuli keng qo'llaniladi. Bu esa regressiya yondashuvining ko'chmas mulkni ommaviy baholashda xalqaro miqyosda e'tirof etilgan samarali usullardan biri ekanligini tasdiqlaydi [1, 10, 11, 13, 16, 20, 28, 29, 30, 31].

Regressiya usullari nafaqat ko'chmas mulkni baholashda, balki atrof-muhitni tahlil qilish, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, kimyo, ta'lim va sanoat kabi turli sohalarda ham keng qo'llaniladigan muhim statistik tahlil va prognozlash vositalari sifatida e'tirof etiladi [5, 7, 8, 14, 23]. Ushbu usullar yordamida ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash, prognozlash aniqligini oshirish hamda asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati kengayadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ko'chmas mulkni ommaviy baholash usullaridan biri bo'lgan regressiya yondashuvi doirasida chiziqsiz regressiya usuliga asoslangan Kobb–Duglas gibrid modelidan foydalanildi. Model 34 ta mezon asosida shakllantirildi.

Bundan tashqari, ayni ma'lumotlar to'plami asosida chiziqli regressiya modeli ham ishlab chiqildi va uning samaradorlik ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'chmas mulkni baholash – bu xolisona, ilmiy asoslarga tayanadigan va ijtimoiy adolat tamoyillarini hisobga olgan holda o'rganilishi lozim bo'lgan o'ziga xos tadqiqot sohasidir. Ko'chmas mulkni baholash mamlakatimizda va butun dunyoda soliqqa tortishdan tortib ekspropriatsiyagacha, ipoteka savdosidan tortib shaharsozlik amaliyotigacha, rejalashtirish ishlaridan tortib yer resurslarini boshqarishgacha bo'lgan keng ko'lamli amaliyot sohalariga ega. Ko'chmas mulk qiymatini aniqlashning ko'plab usullari mavjud. Vaqt o'tishi bilan ko'chmas mulkni baholash mavzusining mazmuni va uslubiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Bundan tashqari, ko'chmas mulkning iqtisodiy ekvivalentlari ko'plab sohalarda qo'llanilganligi sababli, an'anaviy usullar (taqqoslash, daromad, xarajat) faqat tezkor yechimlarni taqdim etadi va zamonaviy talablarga to'liq javob bera olmaydi.

Shu sababli, bir vaqtning o'zida bittadan ko'p ko'chmas mulk obyektini baholash zarurati, boshqacha aytganda, ko'chmas mulkni ommaviy baholash ehtiyoji kun tartibiga chiqdi. Ko'chmas mulkni ommaviy baholash nafaqat mamlakatimizda, balki ko'plab Yevropa davlatlarida va butun dunyoda muhokama qilinadigan mavzudir. Amaliyotda mamlakatdan mamlakatga farqlar mavjud bo'lsa-da, umumiy tendensiyalar o'xshashdir [9]. Ilmiy adabiyotlar tahlili, joriy ehtiyojlar hamda lahzali va umumiy yechimlar yaratuvchi baholash usullari nuqtai nazaridan, baholash metodlari quyidagi yangi guruhlash asosida shakllantirildi (1-rasm):




1-rasm. Kochmas mulkni baholash usullarining qayta tasniflangan tizimi[1]

1 Muallif ishlanmasi

Ko‘chmas mulk qiymatini baholash uchun qo‘llaniladigan ushbu metodlar, agar ular bitta ko‘chmas mulk obyekti uchun vaqtinchalik yechimlar ishlab chiqsa, an’anaviy usullar deb ataladi. Agar bir vaqtning o‘zida bir nechta ko‘chmas mulk obyektining qiymatini baholash uchun model yaratish zarurati tug‘ilsa, ushbu guruhdagi amaliyotlar ikki qismga bo‘linadi va ularning ish prinsiplari shakllantiriladi. Vaqtinchalik yechimlarni taklif qiluvchi usullar ma’lum bir davrdagi ma’lumotlar asosida yaratiladi. Ushbu usullar ma’lumotlar to‘plami yordamida modelni shakllantiradi. Umumiy yechimlarni taqdim etuvchi usullar orqali esa ko‘chmas mulk uchun parametrik qiymatlar ishlab chiqiladi. Zarur bo‘lganda, ushbu parametrik qiymatlarni bozor qiymatlariga aylantirish mumkin.

Regressiya tahlili ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashda qo‘llaniladigan tahlil usulidir. Agar tahlil faqat bitta mustaqil o‘zgaruvchi asosida amalga oshirilsa, u bir omilli regressiya, agar bir nechta mustaqil o‘zgaruvchilar jalb etilsa, ko‘p omilli regressiya tahlili deb ataladi. Regressiya tahlili qo‘llaniladigan matematik funksiyalarning xususiyatlariga ko‘ra chiziqli regressiya va chiziqsiz regressiya usullariga bo‘linadi [17].

Ko‘p omilli chiziqli regressiya tahlili – bu bog‘liq o‘zgaruvchi hamda unga ta’sir etuvchi bir nechta mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasida chiziqli matematik tenglama hosil qilish va bashoratlashga xizmat qiluvchi statistik tahlil usulidir [25]. Ushbu usulning asosiy maqsadi – bog‘liq o‘zgaruvchiga ta’sir etuvchi deb tanlangan mustaqil o‘zgaruvchilar yordamida bog‘liq o‘zgaruvchining qiymatini baholashdir.

Ushbu usulning matematik modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$\boldsymbol{y_i = \beta_0 + \beta_1 X_{i1} + \beta_2 X_{i2} + \cdots + \beta_k X_{ik} + u_i} \quad (1)$$

bu yerda:

$y_i$ – bog‘liq o‘zgaruvchi (ko‘chmas mulk qiymati);

$X_{i1}, X_{i2}, \ldots, X_{ik}$ – mustaqil o‘zgaruvchilar (qurilish zichligi koeffitsiyenti, qavatlar maydoni koeffitsiyenti, yer maydoni va boshqalar);

$u_i$ – xatolik (tasodifiy og‘ish) hadi;

$\beta_0$ – doimiy koeffitsiyent;

$\beta_1, \beta_2, \ldots, \beta_k$ – regressiya koeffitsiyentlari.

Tahlil natijasida aniqlangan $R^2$ ko‘rsatkichi albatta tekshirilishi lozim. Ushbu ko‘rsatkich bog‘liq o‘zgaruvchidagi - ko‘chmas mulk qiymatidagi dispersiyaning necha foizi mustaqil o‘zgaruvchilar tomonidan tushuntirilishini ifodalaydi [6]. Boshqacha aytganda, $R^2$ qiymati 1 ga qanchalik yaqin bo‘lsa, model mustaqil o‘zgaruvchilar orqali shunchalik yaxshi izohlangan hisoblanadi [28, 29, 30]

Ko‘p omilli chiziqsiz regressiya tahlilining maqsadi, ko‘p omilli chiziqli regressiyaga o‘xshash tarzda, bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasida chiziqsiz bog‘liqlikni aniqlash va modellashtirishdan iborat. Nolinear regressiyada turli xil model tenglamalaridan foydalanish mumkin bo‘lib, ulardan eng ko‘p qo‘llaniladiganlari eksponensial, polinomial va logistik tenglamalardir. Ushbu tadqiqotda esa Kobb–Duglas gibrid modeli qo‘llanilgan.

Nolinear regressiya modellari tuzilishi jihatidan chiziqli modellarga nisbatan murakkab emas va quyidagi umumiy ko‘rinishda ifodalanadi:

$$\boldsymbol{Y_i = f(X_i, \gamma) + \varepsilon_i} \quad (2)$$

bu yerda:

$Y_i$ – bog‘liq o‘zgaruvchi;

$X_i$ – k o‘lchamli mustaqil o‘zgaruvchilar vektori;

$\gamma$ – p o‘lchamli noma’lum parametrlar vektori;

$\varepsilon_i$ – tasodifiy xatolik (og‘ish) hadi;

Mazkur yondashuv yordamida bog‘liq o‘zgaruvchining mustaqil omillarga nisbatan chiziqli bo‘lmagan ta’siri yanada aniqroq ifodalanadi va ko‘chmas mulkni ommaviy baholash jarayonida yuqori aniqlikdagi natijalarga erishish imkonini beradi.

Ko‘chmas mulk qiymati modelini shakllantirishdagi eng muhim bosqichlardan biri qiymatga ta’sir etuvchi mezonlarni aniqlash hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda qiymat mezonlarini belgilash jarayonida, avvalo, mezonlar huquqiy, jismoniy, makoniy va mahalliy xususiyatlar kabi to‘rtta asosiy guruhga ajratildi. Shundan so‘ng, har bir asosiy guruh doirasida quyi mezonlar belgilandi (2-rasm).




2-rasm. Ko‘chmas mulkni baholashda foydalanilgan mezonlar tizimi[2]

Mazkur yondashuv doirasida huquqiy xususiyatlar bo‘yicha 5 ta, jismoniy xususiyatlar bo‘yicha 6 ta, joylashuv xususiyatlar bo‘yicha 12 ta mezon aniqlangan. Mahalliy xususiyatlar bo‘yicha esa 10 ta mezon belgilandi va ushbu 10 ta mezon asosida integrallashgan indeks shakllantirildi.

Aniqlangan mezonlar bo‘yicha ma’lumotlar to‘plami – huquqiy, jismoniy va joylashuv xususiyatlari – yer uchastkasi kesimida shakllantirildi, mahalliy xususiyatlar esa nisbatan kichik hududiy darajada tartibga solindi. Yer uchastkalari qiymatlari bozor namunalari asosida belgilandi.

Normallashtirish tushunchasi ma’lumotlarni muayyan oraliqqa keltirish jarayonini anglatadi. Turli qiymat oraliqlariga ega bo‘lgan ma’lumotlar [0–1], [1–2] kabi o‘lchovsiz sonli oraliqlarga keltiriladi. Boshqacha aytganda, ma’lumotlar standartlashtiriladi. Raqamlashtirilgan ma’lumotlar to‘plamiga normallashtirish qo‘llanilishi natijasida barcha qiymatlar bir xil birlik va oraliqqa keltiriladi [25].

Ma’lumotlar to‘plami tayyorlangach, SPSS dasturida regressiya tahlillarini (chiziqli va chiziqsiz) amalga oshirish uchun bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar sonli ko‘rinishda va bir xil birlikda tahlil qilinishi zarur. Shu maqsadda barcha mezonlar bo‘yicha ma’lumotlarga normallashtirish amaliyoti qo‘llanildi. Normallashtirishdan so‘ng ma’lumotlarning eng katta qiymati 2, eng kichik qiymati esa 1 ga teng bo‘ldi.

Normallashtirish formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$X_{\text{norm}} = \frac{X_i - X_{min}}{X_{max} - X_{min}} + 1 \quad (3)$$

bunda:

$X_{max}$ – tegishli ma’lumotlar to‘plamidagi maksimal qiymat;

$X_{min}$ – tegishli ma’lumotlar to‘plamidagi minimal qiymat;

$X_i$ – o‘zgaruvchining joriy qiymati.

Normallashtirish jarayoni natijasida ma’lumotlar to‘plami regressiya (chiziqli va chiziqsiz) tahlillarini o‘tkazish uchun to‘liq tayyor holatga keltirildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan chiziqli va chiziqsiz regressiya modellari (1- va 2-tenglamalar) SPSS 20 dasturiy paketida shakllantirilib, normallashtirilgan ma’lumotlar to‘plamiga tatbiq etildi.

Ko‘p omilli chiziqli regressiya modelida mustaqil o‘zgaruvchilarning qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan ko‘rinishda aniqlandi va o‘tkazilgan sinov natijasida determinatsiya koeffitsiyenti ($R^2$ = 0,8184) ga teng ekani

2 Muallif ishlanmasi.

aniqlandi. Bu natija bog‘liq o‘zgaruvchidagi (ko‘chmas mulk qiymatidagi) dispersiyaning taxminan 81,84 foizi mustaqil o‘zgaruvchilar tomonidan izohlanishini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Chiziqli regressiya parametrlarining baholari[3]

| Model (mezon) | B | Std. Error | Beta | t | Sig. |
|---|---|---|---|---|---|
| **O‘zgarmas qiymat** | -0,850 | 0,107 | – | -7,960 | 0,000 |
| Qurilish zichligi koeffitsiyenti | 0,011 | 0,081 | 0,007 | 0,139 | 0,889 |
| Qavatlar maydoni koeffitsiyenti | 0,177 | 0,106 | 0,118 | 1,662 | 0,097 |
| Qavatlar soni | 0,189 | 0,053 | 0,168 | 3,549 | 0,000 |
| Binoning joylashuv sxemasi | 0,017 | 0,023 | 0,020 | 0,757 | 0,449 |
| Yer uchastkasi maydoni | 0,906 | 0,040 | 0,727 | 22,774 | 0,000 |
| Chekka/oraliq uchastka | -0,028 | 0,012 | -0,091 | -2,266 | 0,024 |
| Fasadlar soni | -0,034 | 0,036 | -0,032 | -0,938 | 0,349 |
| Fasad uzunligi | 0,096 | 0,030 | 0,132 | 3,154 | 0,002 |
| Geometrik shakl | 0,030 | 0,017 | 0,035 | 1,765 | 0,078 |
| Muhandislik-infratuzilma | 0,026 | 0,016 | 0,049 | 1,637 | 0,102 |
| Yo‘l turi | -0,016 | 0,008 | -0,052 | -1,955 | 0,051 |
| Yo‘l kengligi | 0,046 | 0,025 | 0,041 | 1,868 | 0,062 |
| Sog‘liqni saqlash muassasalari | 0,022 | 0,016 | 0,033 | 1,400 | 0,162 |
| Ta’lim muassasalari | 0,029 | 0,019 | 0,045 | 1,539 | 0,125 |
| Davlat idoralari indeksi | 0,000 | 0,027 | 0,000 | 0,014 | 0,989 |
| Xavfsizlik bo‘linmalari | -0,009 | 0,015 | -0,017 | -0,608 | 0,544 |
| Savdo markazlari | -0,042 | 0,015 | -0,076 | -2,787 | 0,006 |
| Madaniyat markazlari | -0,073 | 0,032 | -0,059 | -2,243 | 0,025 |
| Ko‘ngilochar obyektlar indeksi | 0,000 | 0,017 | 0,001 | 0,023 | 0,982 |
| Yashil hududlar indeksi | -0,003 | 0,016 | -0,005 | -0,213 | 0,832 |
| Transport infratuzilmasi indeksi | 0,112 | 0,019 | 0,160 | 5,957 | 0,000 |
| Sanitariya holati indeksi | 0,016 | 0,014 | 0,027 | 1,154 | 0,249 |
| Shahar markaziga yaqinlik | 0,007 | 0,043 | 0,006 | 0,171 | 0,864 |
| Boshqa mezonlar | 0,056 | 0,021 | 0,069 | 2,674 | 0,008 |
| Mahalla indeksi | 0,066 | 0,017 | 0,125 | 3,853 | 0,000 |

Ko‘p omilli chiziqsiz regressiya yondashuvi (2-tenglama) doirasida turli model tenglamalaridan foydalanish imkonini beruvchi Kobb–Duglas gibrid modeli qo‘llanildi. Ushbu modelni tatbiq etish natijasida mustaqil o‘zgaruvchilarning koeffitsiyentlari 2-jadvalda keltirildi hamda determinatsiya koeffitsiyenti ($R^2$ = 0,854) ga teng ekani aniqlandi (2-jadval).

2-jadval. Kobb–Duglas gibrid regressiya modeli parametrlarining baholari[4]

| Mezonlar | Parametr | Baholangan qiymat (Estimate) | Std. Error | 95% ishonch oralig‘i (Past) | 95% ishonch oralig‘i (Yuqori) |
|---|---|---|---|---|---|
| Doimiy had | $\alpha_0$ | 1,370 | 0,669 | 0,054 | 2,685 |
| Qurilish zichligi koeffitsiyenti | $\alpha_1$ | 0,093 | 0,062 | -0,029 | 0,215 |
| Qavatlar maydoni koeffitsiyenti | $\alpha_2$ | 0,100 | 0,092 | -0,082 | 0,281 |
| Qavatlar soni | $\alpha_3$ | 0,190 | 0,086 | 0,021 | 0,359 |
| Binoning joylashuv sxemasi | $\alpha_4$ | -0,001 | 0,017 | -0,035 | 0,033 |
| Yer uchastkasi maydoni | $\alpha_5$ | 0,642 | 0,261 | 0,129 | 1,156 |
| Doimiy had | $\beta_0$ | 1,056E-49 | 0,000 | -1,850E-43 | 1,850E-43 |
| Chekka/oraliq uchastka | $\beta_1$ | -38,552 | 592,020 | -1202,179 | 1125,076 |
| Fasadlar soni | $\beta_2$ | 98,739 | 1474,294 | -2799,018 | 2996,496 |
| Fasad uzunligi | $\beta_3$ | 64,705 | 1288,105 | -2467,095 | 2596,505 |
| Geometrik shakl | $\beta_4$ | 6,156 | 1 284 213,602 | -2 524 144,078 | 2 524 156,391 |

3 Muallif tomonidan tayyorlangan.
4 Muallif tomonidan tayyorlangan.

| Mezonlar | Parametr | Baholangan qiymat (Estimate) | Std. Error | 95% ishonch oralig‘i (Past) | 95% ishonch oralig‘i (Yuqori) |
|---|---|---|---|---|---|
| Muhandislik-infratuzilma | $\beta_5$ | 46,496 | 6208,789 | -12 157,016 | 12 250,008 |
| Yo‘l turi | $\beta_6$ | 16,267 | 3709,328 | -7274,499 | 7307,032 |
| Yo‘l kengligi | $\beta_7$ | 60,007 | 1296,231 | -2487,763 | 2607,776 |
| Doimiy had | $\theta_0$ | 2,004E-09 | 0,000 | -1,190E-08 | 1,591E-08 |
| Sog‘liqni saqlash muassasalari | $\theta_1$ | 4,159 | 1,086 | 2,025 | 6,294 |
| Ta’lim muassasalari | $\theta_2$ | 12,938 | 2,616 | 7,796 | 18,081 |
| Davlat idoralari indeksi | $\theta_3$ | -9,103 | 2,157 | -13,344 | -4,862 |
| Xavfsizlik bo‘linmalari | $\theta_4$ | -1,405 | 1,091 | -3,549 | 0,738 |
| Savdo markazlari | $\theta_5$ | -5,937 | 1,060 | -8,021 | -3,853 |
| Madaniyat markazlari | $\theta_6$ | -7,105 | 4,496 | -15,941 | 1,731 |
| Ko‘ngilochar obyektlar indeksi | $\theta_7$ | 7,691 | 1,830 | 4,094 | 11,288 |
| Yashil hududlar indeksi | $\theta_8$ | 0,503 | 1,514 | -2,472 | 3,478 |
| Transport infratuzilmasi indeksi | $\theta_9$ | 9,662 | 1,921 | 5,887 | 13,437 |
| Sanitariya holati indeksi | $\theta_{10}$ | 5,036 | 1,355 | 2,373 | 7,698 |
| Shahar markaziga yaqinlik | $\theta_{11}$ | 0,563 | 1,329 | -2,049 | 3,175 |
| Boshqa mezonlar | $\theta_{12}$ | 6,029 | 2,112 | 1,879 | 10,180 |
| Doimiy had | $\lambda_0$ | 0,519 | 0,681 | -0,857 | 0,819 |
| Mahalla indeksi | $\lambda_1$ | -0,223 | 0,343 | -0,897 | 0,452 |

Tadqiqot hududi bo‘yicha shakllantirilgan ma’lumotlar to‘plamiga ko‘p omilli chiziqli regressiya va Kobb–Duglas gibrid (chiziqsiz) regressiya modellari qo‘llanildi. Har ikkala modelda ham bozor qiymatlari va model orqali hisoblangan qiymatlar asosida trend chizig‘i qurildi hamda ($R^2$) ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi. Shuningdek, ma’lumotlar to‘plamidagi qiymatlarning taqsimlanishi va sochilishi grafik ko‘rinishda tahlil qilindi (3-rasm).




3-rasm. Ko‘p omilli chiziqli regressiya va Kobb–Duglas gibrid (chiziqsiz) regressiya modellari natijalarining taqqoslanishi[5]

Ma’lumotlar to‘plamidagi qiymatlarning grafik taqsimlanishi natijalariga ko‘ra, ($R^2$) qiymatining 1 ga yaqinlashishi va hisoblangan qiymatlarning trend chizig‘iga yaqinlashib borishi model natijalarining bozor qiymatlariga yaqinlashayotganini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, 100 foizlik aniqlikka ega modelda (y = x) tengligi kuzatilishi kutiladi. Shu nuqtayi nazardan, trend chizig‘i tenglamasida (x) oldidagi koeffitsiyentning 1 ga yaqin bo‘lishi modelning muvaffaqiyat darajasini oshiradi.

Ko‘p omilli chiziqli regressiya va Kobb–Duglas gibrid modeli natijalari asosida olingan ($R^2$) qiymatlari hamda trend chizig‘i tenglamasidagi (x) koeffitsiyentlari shuni ko‘rsatadiki, har ikkala usul bo‘yicha ham o‘zaro juda yaqin va taqqoslanadigan natijalarga erishilgan (3-rasm). Bu esa tanlangan modellar ko‘chmas mulkni ommaviy baholashda samarali va amaliy jihatdan qo‘llashga yaroqli ekanligini tasdiqlaydi.

Model qiymatlari bilan bozor qiymatlarini o‘zaro taqqoslash maqsadida MAE, MAPE va RMSE ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi (4-rasm).

5 Muallif ishlanmasi.




4-rasm. MAE, MAPE va RMSE ko'rsatkichlari bo'yicha chiziqli va chiziqsiz regressiya modellari taqqoslanishi[6]

Hisoblangan ushbu ko'rsatkichlar asosida modellar xatolik samaradorligi nuqtayi nazaridan baholandi va o'zaro solishtirildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xatolik ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, Kobb–Duglas gibrid modeli ko'p omilli chiziqli regressiya modeliga nisbatan yuqoriroq aniqlik va samaradorlikni namoyon etdi. Bu holat chiziqsiz yondashuvning bozor qiymatlariga yaqinroq natijalar berishini hamda ko'chmas mulkni ommaviy baholashda ustun model ekanligini tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon iqtisodiyotida muhim ulushga ega bo'lgan ko'chmas mulk obyektlari investitsiya, loyiha ishlab chiqish, ekspropriatsiya, sug'urta va soliqqa tortish kabi turli sohalarda keng qo'llaniladi. Ushbu aktivlar qiymatini aniq va ommaviy tarzda belgilash davlat organlari, xususiy kompaniyalar hamda fuqarolarning ko'chmas mulk bilan bog'liq munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ko'chmas mulkni baholash jarayonida mos ommaviy baholash usuliga asoslangan qiymat modelini shakllantirish zarur hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda ko'chmas mulk qiymatini aniqlash uchun Kobb–Duglas gibrid modeli qo'llanildi. Ushbu model yordamida quyidagi natijalarga erishish mumkinligi aniqlandi:

- an'anaviy (klassik) baholash usullariga nisbatan kam mehnat sarfi bilan ko'chmas mulk qiymatini aniqlash;
- ko'chmas mulklar qiymatini bir vaqtning o'zida aniqlash orqali baholash jarayonini past xarajatlar asosida amalga oshirish;
- ko'chmas mulkni adolatli soliqqa tortish imkoniyatini kengaytirish;
- ko'chmas mulk qiymatiga asoslangan kichik va yirik miqyosdagi qiymat xaritalarini shakllantirish;
- hududlar kesimida tuzilgan qiymat xaritalari asosida shaharsozlik siyosatini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;
- ko'chmas mulk qiymatiga doir zamonaviy va o'zgaruvchan ehtiyojlarga tezkor javob berish imkoniyatini yaratish, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois, rivojlangan mamlakatlar tajribasini inobatga olgan holda, mamlakatimizda ham ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimiga yanada kengroq e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Taklif etilgan modelni hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda respublikaning turli hududlarida moslashtirib qo'llash mumkin. Kobb–Duglas gibrid modeli yordamida ko'chmas mulk qiymatiga ta'sir etuvchi mahalliy, joylashuv, jismoniy va huquqiy mezonlarning qaysilari ustuvor ahamiyatga ega ekanligini aniqlash imkoniyati mavjud.

6 Muallif ishlanmasi

Mazkur yondashuv qaror qabul qiluvchilar uchun qiymatga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar asosida yangi strategiya va dasturlarni ishlab chiqishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, modelning moslashuvchanligi uning asosiy afzalliklaridan biri hisoblanadi. Ya’ni, ko‘chmas mulk qiymatiga ta’sir etuvchi mezonlardan ayrimlarining mavjud bo‘lmasligi modelni to‘liq qayta qurishni talab etmaydi, bu esa uni amaliyotda qo‘llashni yanada qulay va samarali qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Abdullahi, A., Usman, H., & Ibrahim, I. (2018). Determining house price for mass appraisal using multiple regression analysis modeling in Kaduna North, Nigeria. ATBU Journal of Environmental Technology, 11(1), 26–40.
2. Açlar, A., Demirel, Z., Demir, H., Çağdaş, V., Gür, M., & Kurt, V. (2003). Taşınmaz değerlemesi sistem tasarımı. TMMOB Harita ve Kadastro Mühendisleri Odası 9. Türkiye Harita Bilimsel ve Teknik Kurultayı, 129–144.
3. Açlar, A., & Çağdaş, V. (2002). Taşınmaz (gayrimenkul) değerlemesi. Ankara: TMMOB Harita ve Kadastro Mühendisleri Odası.
4. Akhan, Ş., & Bindak, R. (2017). Bazı kişisel değişkenlerin ortaokul öğrencilerinin matematik başarısı üzerindeki etkisi: Bir regresyon modeli. Ihlara Eğitim Araştırmaları Dergisi, 2(2), 5–17.
5. Altunışık, R., Çoşkun, R., Bayraktaroğlu, S., & Yıldırım, E. (2010). Sosyal bilimlerde araştırma yöntemleri (SPSS uygulamalı). Sakarya: Sakarya Yayıncılık.
6. Archontoulis, S. V., & Miguez, F. E. (2015). Nonlinear regression models and applications in agricultural research. Agronomy Journal, 107(2), 786–798.
7. Bag, S., Tiwari, M. K., & Chan, F. T. (2019). Predicting consumer purchase intention of durable goods: An attribute-level analysis. Journal of Business Research, 94, 408–419.
8. Barańska, A. (2013). Real estate mass appraisal in selected countries: Functioning systems and proposed solutions. Real Estate Management and Valuation, 21(3), 35–42.
9. Bin, J., Tang, S., Liu, Y., Wang, G., Gardiner, B., Liu, Z., & Li, E. (2017). Regression model for appraisal of real estate using recurrent neural network and boosting tree. In ICCIA 2017 Proceedings (pp. 209–213). IEEE.
10. Del Giudice, V., De Paola, P., & Forte, F. (2017). Using genetic algorithms for real estate appraisals. Buildings, 7(2), 31.
11. Derinpınar, M. A., & Aydınoğlu, A. Ç. (2015). Bulanık mantık ile coğrafi bilgi teknolojilerini kullanarak taşınmaz değerlemesi. TMMOB Harita ve Kadastro Mühendisleri Odası.
12. Georgiadis, A. (2018). Real estate valuation using regression models and artificial neural networks: An applied study in Thessaloniki. RELAND: International Journal of Real Estate & Land Planning, 1, 292–303.
13. Malik, M. R., Isaac, B. J., Coussement, A., Smith, P. J., & Parente, A. (2018). Principal component analysis coupled with nonlinear regression for chemistry reduction. Combustion and Flame, 187, 30–41.
14. Manganelli, B., Paola, P. D., & Giudice, V. D. (2018). A multi-objective analysis model in mass real estate appraisal. International Journal of Business Intelligence and Data Mining, 13(4), 441–455.
15. Mei, H., & Fang, H. (2017). Real estate price forecast model in the Midwest of China. In Management Science and Engineering Management (pp. 525–536). Springer.
16. Orhunbilge, N. (2002). Applied regression and correlation analysis. Istanbul: Istanbul University Publication.
17. Orman, M. N., & Gürcan, S. (2001). Doğrusal olmayan regresyon analizi ve biyoistatistikte kullanımı.
18. Pagourtzi, E., Assimakopoulos, V., Hatzichristos, T., & French, N. (2003). Real estate appraisal: A review of valuation methods. Journal of Property Investment & Finance, 21(4), 383–401.
19. Parygin, D. S., et al. (2018). Categorical data processing for real estate valuation. Journal of Physics: Conference Series, 1015.
20. Renigier-Biłozor, M., Janowski, A., & d’Amato, M. (2019). Automated valuation model based on fuzzy and rough set theory. Land Use Policy, 87, 104021.
21. Sarip, A. G., Hafez, M. B., & Daud, M. N. (2016). Fuzzy regression model for real estate price prediction. Malaysian Journal of Computer Science, 29(1), 15–27.
22. Şarlak, N., & Güven, A. (2016). Global güneş radyasyonu tahmini. Teknik Dergi, 27(3), 7561–7568.
23. Turp, S. M. (2019). Hava kirliliği tahmini: Çoklu lineer regresyon. Doğal Afetler ve Çevre Dergisi, 5(1), 1–10.
24. Unel, F. B. (2017). Taşınmaz değerleme kriterlerine yönelik coğrafi veri modeli (PhD thesis). Selçuk University.
25. Wang, X., et al. (2014). Real estate price forecasting using SVM optimized by PSO. Optik, 125(3), 1439–1443.
26. Varma, A., et al. (2018). House price prediction using machine learning. IEEE Conference Proceedings.
27. Yalpir, S., & Ozkan, G. (2018). FIS and ANFIS models for real estate valuation. International Journal of Strategic Property Management, 22(2), 110–118.
28. Yalpir, S., & Bayrak, E. (2017). Real estate valuation in urban regeneration. Selçuk Üniversitesi Dergisi, 5(1), 96–103.
29. Yalpir, S. (2007). Bulanık mantık metodolojisi ile taşınmaz değerleme modeli (Doctoral dissertation).
30. Yeh, I. C., & Hsu, T. K. (2018). Case-based reasoning in real estate valuation. Applied Soft Computing, 65, 260–271.
31. Yomralıoğlu, T., et al. (2011). Dünya’da ve Türkiye’de taşınmaz değerlemesi.
32. Zhou, G., et al. (2018). Artificial neural networks in mass appraisal. International Journal of Online Engineering, 14(3).
33. To‘lakov, U. T. (2026). O‘zbekistonda ko‘chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etishning strategik jihatlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 4(1), 223–228.
34. To‘lakov, U. T. (2025). Ko‘chmas mulkni soliqqa tortish va ommaviy baholashda ekonometrik modellashtirish. Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, 2(3), 807–847.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 3**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**